

SAVDO KO'NGILOCHAR MARKAZI BINOSI

Mavlonova Nurxon Ismoiljonovna*Toshkent arxitektura-qurilish Universiteti**Arxitektura fakulteti tyutori*Nurxonmavlonova3@gmail.com**Aripova Madina Mirjalol qizi***Toshkent arxitektura-qurilish Universiteti**Arxitektura fakulteti Interier Dizayn yo'nalishi**1-kurs talabasi*m83495650@gmail.com**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 04.02.2026**Revised: 05.02.2026**Accepted: 06.02.2026***KALIT SO'ZLAR:***Savdo majmuasi,
ko'ngilochar joylar,
korxonalar, savdo,
inshoot, mehnat
muhofazasi*

Mustaqillik tufayli O'zbekiston davlatimiz o'zining iqtisodiy taraqqiyot yo'lidan oldinlab borar ekan, ichki va tashqi siyosatda ilg'or davlatlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatilmoqda. Ilg'or davlatlarning tajribasidan unumli foydalanish, shuning barobarida O'zbekistonda ichki tovar bazasini kengaytirish kabi ishlar izchil olib borilmoqda.

Har qanday kashfiyotning xam o'tmishi, hozirgi kuni va kelajagi mavjud bo'lgani kabi, arxitektura ham o'zining barcha borlig'i bilan bundan mustasno emas. Jahon sivilizatsiyasi qanday rivojlanganidan qat'iy nazar O'rta Osiyo davlatlari ichida O'zbekiston o'zining dunyoga mashhur bo'lgan sivilizatsiyasi va ayniqsa, arxitekturasi bilan diqqatga sazovordir. Kelajak arxitekturasi ham hozirgi yosh avlodning bunyodkorlik mehnati bilan yaratilmoqda. Shu sababli yangi tarixiy davrda O'zbekiston arxitekturasini taraqqiy

ettirish, yo'nalishlarini to'g'ri belgilash juda katta axamiyatga ega.

Bizning bu kungi arxitekturamiz xam o'ziga xosligi bilan dunyo arxitekturasi ichida ajralib turadi. Bunga sabab o'zbek xalqining ming yillab asrab avaylab kelayotgan arxitektura an'analari xozirgi kunda ham davom etayotganligidadir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng boshqa sohalarda bo'lgani kabi arxitekturada ham katta o'zgarishlar ro'y berdi.

Arxitektura kadimda jamiyatning mavjud g'oyalarini aks ettirishga, davlat extiyojlarini qondirishga intilgan. Shu bois Respublikamiz me'morlari yuz berayotgan ulkan o'zgarishlarga baholi qudrat o'z hissalarini qo'shishga intilmoqdalar.

Diyorimiz avvaldan yirik madaniyat o'chog'i bo'lgan. Binobarin, biz boy tarixiy, me'moriy va madaniy merosga egamiz. Jamoat binolari va uning majmualari sun'iy yaratilgan muhit bo'lib, bir yoki bir nechta jarayonlar o'zaro bog'liq bo'lgan insonning hayotiy faoliyatini o'tkazishga mo'ljallangandir. Jamoat bino va inshootlarining eng asosiy omili uning hajmiy rejalashtirilishi asosini insonning hayotiy faoliyati davomida jamiyatga xizmat qilishiga erishishdan iboratdir.

Shuning uchun ham jamoat bino va inshootlarini loyihalashda turli xildagi kompleks omillarini (faktorlar) hisobga olish kerak bo'ladi. Bular: ijtimoiy, shaharsozlik, tabiiy-iqlimiy, milliy-maishiy, konstruktiv, fiziko-texnikaviy, iqtisodiy, arxitekturaviy-badiiy va boshqalar.

Asosiy omil esa, uning insonga xizmatidir. Inson

turmush tarzining beqiyos darajada o'sib borishi texnik jarayonlarning aktivligi bilan bog'liqligi natijasi o'laroq funksional-texnologik jarayonlar ham jamoat binolarining yangi-yangi tiplarini yaratishni taqozo etadi. Hozirgacha 14 guruhdan iborat bo'lgan arxitektura qurilish normalarining jamoat bino va inshootlarining tasnifi (klassifikatsiyasi) mavjud bo'lib, bular 900 dan ortiqdir.

Zamonaviy sharoitlarda aholiga maishiy xizmat ko'rsatish va umumiy savdo korxonalari, shuningdek, uyushmagan, aholida yoki qo'shimcha qurilgan obyektlar bilan bir qatorda barcha xizmatlar bir joyda mujassamlashtirilgan binolar komplekslari – savdo markazlari katta rol o'ynamoqda. Bu, o'z navbatida, aholiga qator qulayliklarni sezilarli darajada yaratibgina qolmay, balki savdo va madaniy-maishiy korxonalar ishlarini tashkiliy jihatdan yaxshilashga imkon beradi.

Boshqa savdo va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarga nisbatan savdo markazlari qator afzalliklarga ega bo'lib, bunda transport va yo'llarni kesib o'tish muammolari hal etiladi hamda tumanlardagi uy-joy hududlari zonalashtiriladi. Savdo korxonalarini mujassamlashtirilgan holda joylashtirish, xaridorlar talablarini keng qamrovda qondirib, ahamiyatli qulayliklar yaratiladi. Konstruksiyalarni unifikatsiyalash va bir rejaviy sistemani qo'llash asosida qurilish muddatlari qisqaradi. Bu murakkab va xilma-xil binolar majmuasini loyihalashda keng kompozitsion imkoniyatlar ochiladi.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi savdo-ko'ngilochar majmualari faoliyatini tashkil etish qoidalari haqida juda ko'p ma'lumotlar berish mumkin.

Ushbu qoidalar O'zbekiston Respublikasi savdo-ko'ngilochar majmualari faoliyatini tashkil etishga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilaydi. Ushbu Qoidalarda savdo-ko'ngilochar majmualari deganda, belgilangan joylarda doimiy yoki vaqtinchalik asosda faoliyat ko'rsatadigan hamda savdo rastalari, savdo o'rinlari va turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari)dan foydalangan holda keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning chakana savdosi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga mo'ljallangan mulkiy kompleks tushuniladi.

Savdo-ko'ngilochar majmuasi hududida joylashgan turg'un chakana savdo obyektlari faoliyati va umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatish O'zbekiston Respublikasida chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish (xizmatlar ko'rsatish) qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

II. Savdo-ko'ngilochar majmualarini tashkil etish tartibi

Savdo kompleksi faoliyatini tashkil etish yuridik shaxs tomonidan unga foydalanish uchun yoxud ijaraga berilgan yer uchastkasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ta'minlanadi. Savdo kompleksi faoliyat ko'rsatishi uchun foydalanishga berilgan yer uchastkasidan boshqa maqsadlarda foydalanilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ko'rsatib o'tilgan yuridik shaxs har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etiladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan bozor negizida qayta tashkil etilgan savdo-ko'ngilochar muassasalaridan bittasi majburiy tartibda ustav fondidagi ulushi kamida 51 foiz bo'lgan mahalliy davlat hokimiyati organi bo'lishi kerak.

Savdo-ko'ngilochar majmuasini tashkil etish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining bozor tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratish to'g'risidagi qarori asosida amalga oshiriladi.

Qarorda savdo-ko'ngilochar majmuasining joylashgan o'rni, ixtisoslashuvi, ish tartibi, undagi savdo o'rinlarining soni va joylashishi majburiy tartibda belgilanadi.

Tashkil etilayotgan savdo-ko'ngilochar majmualar ustav fondining eng kam miqdori yuridik shaxslarning tegishli tashkiliy-huquqiy shakllari uchun qonun hujjatlarida belgilangan miqdorga muvofiq bo'lishi kerak.

Savdo-ko'ngilochar majmualarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tadbirkorlik subyektlari uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Savdo-ko'ngilochar majmualarini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

III. Savdo-ko'ngilochar majmuasi hududini obodonlashtirishga, obyektlarni joylashtirishga va majmuani jihozlashga qo'yiladigan umumiy talablar

Savdo majmuasida quyidagilar bo'lishi kerak:

savdo majmuasida ish vaqti tugagandan keyin yopiladigan kirish va chiqish joylari;

savdo majmuasining nomi, ixtisoslashuvi va ish tartibi ko'rsatilgan holda davlat tilida rasmiylashtirilgan peshlavha;

jihozlangan va tartib raqamlari qo'yilgan turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan pavilonlar), shuningdek savdo majmuasi ma'muriyati tasdiqlagan va ko'rinarli joyga

savdo-ko'ngilochar majmuasi ma'muriyatining, tuman (shahar) hokimligining, davlat veterinariya xizmati sanitariya-epidemiologiya nazorati, davlat soliq xizmati, ichki ishlar hududiy organlarining telefon raqamlari.

Savdo-ko'ngilochar majmuasi hududidagi maxsus ajratilgan joylarda umumiy ovqatlanish, servis xizmati ko'rsatish va tijorat banklari obyektlari (filiallar, mini-banklar, bank kassalari, inkassatsiya punktlari) joylashtiriladi.

Savdo-ko'ngilochar majmuasida sanitariya kunlari mahalliy davlat hokimiyati organi tomonidan tasdiqlangan jadvalga muvofiq belgilanadi.

Savdo-ko'ngilochar majmuasi hududida tovarlarni tashishni va bozorda savdo jarayonini tashkil etish tovarlarni tashib keltirish (qabul qilib olish), saqlash va sotish uchun zarur sharoitlarni to'liq ta'minlashi kerak.

Mijozlarning savdo-ko'ngilochar majmuasi hududiga kirishi – bepul.

Savdo-sotiq va maishiy xizmat ko'rsatish binolari to'g'risida so'z yuritilgan ekan, bu yerda shuni aytish lozimki, shahar strukturasi bundan katta xizmat ko'rsatish sferasi bo'lmasa kerak. Chunki inson xayot turmush jabhalarining xamma sohasi ushbu xizmat bilan chambarchas bog'likdir. Shuning uchun xam bu narsaning boshqa turdagi xizmatlardan farqi, uning iloji boricha inson yashash joyiga yaqinlashtirish, kundalik xarid darajasini oshirish xamda uni yiriklashtirib boshqa turdagi xizmat ko'rsatuvchi savdo-sotiq majmualarini yaratishdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayon mamlakat rivojlanishida muhim rol o'ynab, savdo-sotiq va maishiy xizmat ko'rsatishni tubdan o'zgartirib yuboradi. Ilmiy-texnika jarayoni esa savdo-sotiq sferasiga va maishiy-hizmat ko'rsatishga, xamda umumiy ovqatlanish sferasiga xam

ta'sir ko'rsatib ularning texnologik jarayonini yaxshilashga zamonaviy darajadagi texnik imkoniyatlardan foydalanishni taqozo etadi.

Tuman, shahar savdo-maishiy xizmat markazlarining ish faoliyatining yaxshilanishi esa, o'z navbatida ushbu sferada binolarning arxitekturasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy savdo-sotiq va maishiy xizmat ko'rsatish binolari, hamda markazlari asosan yirik turdagi majmualardan va mahsus muassasalardan iborat bo'lib, o'zaro yoki yakka holdagi: savdo-sotiq, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat ko'rsatish muassasalaridir. Bular ham o'z navbatida turkumlarga bo'linadi. Asosiysi savdo-sotiq binolari ichida do'konlardir. Zamonaviy do'konlarning arxitekturaviy yechimi ham «universam» larnikidan farq qiladi. Hozirga kelib «universam», «univermag»lar o'rnini chet ellarda mashxur bo'lgan yirik do'konlar, «market»lar egallamoqda. Savdo markazlari va ularning arxitekturasi ham zamonaviylashib bormoqda. Ayniqsa hozirgi vaqtga kelib yirik savdo markazlarining tarkibi juda tez o'zgarib va xususiylashtirilib bormoqda.

Bu esa o'z navbatida arxitekturaviy rejalashtirish yechimini nihoyatda mukammal o'rganib, so'ngra loyihalashni taqozo qiladi. Ma'muriy va kommunal xo'jalik binolari to'g'risida so'z borar ekan avvalo ushbu turdagi muassasa va tashkilotlar uchun, ularning qay darajada katta va kichikligiga qarab aloxida olingan binolar quriladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin "savdo-ko'ngilochar" binolarga bo'lgan talab yanada ortdi. Tadbirkorlar va firmalar ehtiyojini to'la ta'minlash maqsadida nafaqat ko'p sig'imli, balki hozirgi vaqtda xorijiy mamlakatlarda xam qurilishi keng tus olgan, kam sig'imli savdo-kungilochar markazlar O'zbekistonda ham ko'plab qurila boshlandi.

Eng asosiysi jamiyatimizda va siyosatimizda bo'lgani kabi qurilishda ham demokratik jarayon yuzaga keldi. Arxitektorlar va quruvchilar tomonidan avvalgidan farqli o'larok binolarga individual ijodiy yondashish salohiyati kuchaydi. Bu jamoat binolari, shahsiy turar-joylar misolida, shuningdek, transport inshootlari va boshqa barcha turdagi arxitektura binolarida yaqqol namoyon bo'la boshladi.

O'zbekiston shaharlari rivojlanishining hozirgi bosqichi bir qator dolzarb muammolarni ilgari surmoqda. Bular zamonaviy bino va inshootlarni barpo etish, bino va inshootlarning funksional-rejaviy arxitektura-badiiy ko'rinishini takomillashtirish, shahar hududidan unumli foydalanishdan iborat.

Chakana savdo korxonalari, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini tashkil etish shaharning tarkibiy rejalashtirilgan o'lchamlariga va aholining

soniga bog'liq. Shu sababli xizmat ko'rsatish tarmog'i, zonalar, hududlar va ayni vaqtda xizmat ko'rsatishning turi hamda xarakteri bo'yicha tabaqalashtiriladi.

So'nggi vaqtlarda xizmat ko'rsatish tarmog'ining "pog'onali" prinsipi keng tarqalmoqda:

1-pog'ona – 1,5-2 ming yashovchisi bo'lgan turarjoy binolari guruhlariga korxonalar tomonidan birinchi navbatda zaruriy bo'lgan mahsulotlar bilan xizmat ko'rsatish. Bunday kichik korxonalar majmuasi 150 m xizmat ko'rsatish radiusiga ega bo'lib, birlamchi xizmat ko'rsatish punkti deb ataladi. Ular kooperatsiyalangan alohida binoda yoki mehmonxona turidagi uylarga qo'shimcha ichki qurilgan xonalarda bo'lishi mumkin;

2-pog'ona – 5-8 ming kishilik mikrorayonga 400 m xizmat ko'rsatish radiusida bo'lgan, kooperatsiyalangan savdo markazi binosi va unda mujassamlangan xo'jalik bloki;

3-pog'ona – 30-50 ming aholisi bo'lgan turarjoy hududiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar majmuasi tuman savdo markazi. Xizmat ko'rsatish radiusi 750-1000 m atrofida;

4-pog'ona – shaharning katta tumaniga yoki shaharga xizmat ko'rsatuvchi — shahar ahamiyatidagi savdo markazi.

Aholisi 50-100 ming bo'lgan shaharlarda aniq sharoitga ko'ra uch yoki tort pog'onali sistemada, aholisi 50 mingtadan kam bo'lgan shaharlarda esa ikki-uch pog'onali sistemada xizmat ko'rsatish tarmog'i quriladi.

Shunday qilib, savdo markazlari sig'imi va belgilanish maqsadiga ko'ra asosiy - shaharning katta turar joy massiviga yoki shaharga xizmat ko'rsatuvchi va ikkinchi darajali — turar joy yoki mikrorayonlarning savdo markazlari turlariga bo'linadi.

Aniq sharoitlarda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini tashkil etishda savdo markazlari bloklardan yoki sektsiyalardan tuziladi.

Yangidan qurilayotgan shahar tumanida kooperatsiyalangan savdo markazini, hajmiy-rejaviy tarkibini va bir-biri bilan texnologik bog'langan umumiy korxonalar majmuasini loyihalash maqsadga muvofiq.

Xavfsizlik bo'limini maqsadi va vazifasi

2004 yil 1 iyulda O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 4 avgustdagi 107-son Qonuni bilan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida .

O'zbekiston Respublikasida mehnatni muxofaza qilishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muxofaza qilish to'g'risida" gi qonunda mustahkamlangan. Ushbu qonun ishlab chiqarish va dam olish maskanlarda, mexmonxonalarda mehnatni muxofaza qilishni tashkil etishning yagona

tartibini belgilaydi, xamda fuqarolarning sog'ligi va mexnatning muxofaza qilinishini ta'minlashga qaratilgan.

Mehnatni muxofaza qilish – bu tegishli qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amal qiluvchi, insonning mexnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy – iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy vositalari tizimidan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 7- noyabr 1994-yildagi 538- sonli qaroriga asosan korxonalarda mehnatni muhofaza qilish davlat boshqaruviga o'tkazildi va bu masalada bosh mutasaddi qilib Mehnat vazirligi tayinlandi. Keyinchalik Vazirlar Mahkamasining 16-fevral 1995-yildagi 58- son qarori bilan Mehnat vazirligi qoshida «Mehnatni muhofaza qilish boshqarmasi» tuzildi. Bu boshqarmaning vazifasi respublikamizdagi korxona va muassasalarda mehnat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan barcha tashkiliy va texnikaviy muammolarni o'z vaqtida yechilishini nazorat qilish hamda xavfsizlik mezonlarini muhofaza etish va tasdiqlash jarayonida ishtirok etishdan iboratdir. Mehnat xavfsizligi xizmatini bevosita tashkilotning bosh rahbari boshqaradi. Unga amalda bu xizmatni tashkil etish uchun uning yordamchisi va asosiy mutasaddi shaxs sifatida texnika xavfsizligi muhandisi tayinlanadi va unga 25 hamkorlik uchun ko'p yillik ish tajribasiga ega bo'lgan muhandis hamda texnik xodimlar, mehnat jamoalari va kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'zlari saylagan vakillari jalb etiladi. Mehnat xavfsizligi xizmatining asosiy vazifasi ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan jarohatlanish va boshqa baxtsizliklarni keltirib chiqaradigan sabablarni bartaraf qilish va tashkilot ma'muriyatining ishchi-xizmatchilarga ish sharoitini yaxshilab borishi ustidan nazorat qilib turish, fan va texnika yutuqlarini joriy etish asosida mehnat xavfsizligi va himoya vositalarini muttasil takomillashtirish, mehnat madaniyatini oshirish, baxtsizliklarni oldini olishga qaratilgan tashkiliy va texnik hamda sanitariya tadbirlarini ishlab chiqish va ularni joriy qilishdan iboratdir. Mehnat xavfsizligini boshqarish tizimining birdan bir maqsadi, mehnat muhofazasi qonunqoidalariga ishchi va xizmatchilarning e'tiborini oshirish, sog'lom va xavfsiz ish sharoitini yaratishni yagona, to'g'ri yechimini aniqlash hamda uni ishlab chiqarishda tatbiq etishga tavsiya qilishdir.

Mehnat xavfsizligini boshqarish – bu bir qator, tashkiliy, texnikaviy va sanitar-gigiyenik hamda iqtisodiy tadbirlar tizimini tayyorlash va joriy qilish asosida amalga oshiriladi. Mehnat muhofazasi bo'yicha asosiy qonunlar, standartlar va me'yoriy hujjatlar O'zbekistonda mehnat muhofazasi – bu tegishli qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida

amal qiluvchi, insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihatsalomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena va davolash-profilaktika tadbirlari hamda vositalari tizimidan iboratdir. Mehnat muhofazasi bo'yicha belgilangan barcha tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (8-dekabr 1992-y.), O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (21-dekabr 1995-y.), «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun» (6-may 1993-y.), Davlat standartlari, nizomlar va me'yorlar, xavfsizlik texnikasi bo'yicha qoidalar asosida olib boriladi. Respublikamizda demo-kratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatining qurilishi inson huquqlari va erkinliklariga to'liq rioya etilishini taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida respublikamiz fuqarolarining shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari yaqqol o'z ifodasini topgandir. Konstitutsiyada ko'rsatilganidek, «Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar» (2-modda), «Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir....(24-modda). «Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalani sh huquqiga egadir» (37-modda). 33 Yuqoridagilarga asoslangan holda ifodalash mumkinki, insonning hayoti, mehnat faoliyati, faoliyati davridagi sog'ligi davlat qonunlari asosida himoyalani sh, muhofaza qilinadi. O'zbekiston Respublikasining mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunida mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosati aniq o'z aksini topgan. Unda «Korxonaning ishlab chiqarish faoliyati natijalariga nisbatan xodimning hayoti va sog'ligi ustuvorligi» (4-modda) ta'kidlangan. Ushbu qonun 5 bo'lim va 29 moddadan iborat bo'lib, unda mehnat muhofazasi bo'yicha umumiy qoidalar (1- bo'lim, 7 moddadan iborat); mehnatning muhofaza qilinishini ta'minlash (2- bo'lim, 8 moddadan iborat); ishlovchilarning mehnatni muhofaza qilishga doir huquqlarini ruyobga chiqarishdagi kafolatlar (3-bo'lim, 6 moddadan iborat); mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya etilishi ustidan davlat va jamoatchilik nazorati (4-bo'lim, 3 moddadan iborat); mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni buzganlik uchun javob-garlik (5-bo'lim, 5 moddadan iborat) masalalari aniq yoritilgan. 1995-yil 21-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi qabul qilindi va u 1996-yil aprel oyidan boshlab amalda kuchga kirdi. Ushbu qonunda ko'rsatishicha, xavfsizlik texnikasiga, ishlab chiqarish sanitariyasiga, yong'in chiqishidan saqlanishga va mehnat muhofazasining boshqa qoidalariga rioya etish yuzasidan ishchi va

xizmatchilarga yo'l-yo'riqlar berish, shuningdek, xodimlarning mehnat muhofazasiga doir qo'llanmalarda ko'rsatilgan hamma talablarga amal qilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatish ma'muriyat zimmasiga yuklanadi.

Mehnat sharoiti zararli bo'lgan ishlarda, shuningdek, alohida harorat 34 sharoitida bajariladigan yoki havoni ifloslantiruvchi ishlarda mehnat qiluvchi ishchi va xizmatchilarga belgilangan me'yorda maxsus kiyim-bosh, poyabzal va boshqa shaxsiy himoya vositalari tekinga beriladi. Mehnat sharoiti ifloslanish bilan bog'liq va zararli bo'lgan ishlarda ishlovchi ishchilar belgilangan me'yorda sovun hamda sut yoki boshqa xil parhez oziq-ovqatlar, issiq sexlarda ishlovchilar esa gazzuv bilan tekin ta'minlanadi. Mehnat qonunlari kodeksida balog'atga yetmagan yoshlarning, ayollarning mehnatiga alohida e'tibor berilgan. 18 yoshga to'lmagan yigitlarni 16 kg.dan, qizlarni 10 kg.dan ortiq yuk ko'tarishiga, ularning ish vaqtini haftasiga 36 soatdan ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Shuningdek, ularni tungi va ish vaqtidan tashqari ishlarga hamda dam olish kunlari ishlashga jalb etish taqiqlanadi. Ishchi xodimlar uchun ish vaqtining me'yoriy muddati 40 soatdan oshib ketmasligi, 18 ga kirmagan yoshlar hamda mehnat sharoiti zararli bo'lgan ishlarda mehnat qiluvchilar uchun ish vaqti miqdori haftasiga ko'pi bilan 36 soat bo'lishi kerak. Ish vaqtidan ortiq ishlash har bir ishchi va xizmatchi uchun surunkasiga ikki kun davomida 4 soatdan va yiliga 120 soatdan ko'p bo'lmasligi lozim.

Mehnat sharoitlarini me'yorlashtirish, ishchilar uchun sog'lom va xavfsiz ish sharoitini ta'minlash maqsadida mehnat xavfsizligi talablari asosida standartlar ishlab chiqilib, ular ma'lum bir tizimga solingan.

Ishlab chiqarishda yuz beradigan baxtsiz hodisalarning oldini olishga qaratilgan tadbirlardan biri – sodir bo'lgan baxtsiz hodisalarni to'g'ri tekshirish va tahlil qilish, ularning sabablarini aniqlash hamda olingan ma'lumotlar asosida tegishli tadbirlar ishlab chiqishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-sonli qaroriga 35 asosan «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa zararlanishini tekshirish va hisobga olish» to'g'risida Nizomi qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida hamda mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunida mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlarni va boshqa me'yoriy hujjatlarni buzganligi uchun javobgarlik belgilangan. Qonunda, mehnatni muhofaza qilishga doir talablar ta'minlanmaganligi uchun korxonalarning javobgarligi (25- modda); mehnatni muhofaza qilish talablariga javob bermaydigan ishlab chiqarish ahamiyatidagi mahsulotni tayyorlaganlik va sotganlik uchun

korxonalarning iqtisodiy javobgarligi (26-modda); mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni buzganlik uchun javobgarlik (27-modda); ishlab chiqarishda jabrlangan xodimlarga ziyon yetkazganlik uchun korxonalarning moddiy javobgarligi (28- modda); ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida xodim vafot etgan taqdirda korxonaning moddiy javobgarligi (29-modda) aniq ko'rsatib o'tilgan. «Mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar buzilishida aybdor bo'lgan yoki davlat va jamoatchilik nazorati idoralari vakillarining faoliyatiga monelik qilgan mansabdor shaxslar O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda intizomiy, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladilar (27-modda).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. The Transformation of Major Shopping Malls

Mualliflar: Paul Mollé, Davide Padoa va Luca Masia

Nashriyot: Rizzoli New York

Nimani o'rganadi: Zamonaviy savdo markazlarining arxitekturasini, ularning shahar bilan aloqasi, dizayn yechimlari va majmua funksional strukturalari haqida fotosuratlar va tahliliy matnlar jamlanmasi. Bu kitob katta tijorat maydonlari va savdo binolarining zamonaviy dizayn printsiplarini ochib beradi.

2. Shopping Environments

Muallif: Peter Coleman

Nashriyot: Routledge

Nimani o'rganadi: Savdo markazlari arxitekturasini va muhitini shakllantirish bo'yicha keng qo'llanma. Joylashuv, foydalanuvchi oqimi, biznes-arxitektura integratsiyasi, texnik tizimlar va binoning samaradorligi kabi omillar batafsil yoritiladi. Bu kitob savdo arxitekturasini bo'yicha ilmiy va amaliy tahlil beradi.

3.«Arxitektura, qurilish va dizayn»

Muallif: P.И. Nurimbetov

Nashr yili: 2024

Mazmun: Arxitektura va qurilish asoslari, dizayn printsiplari, konstruktsiyalar haqida batafsil o'quv qo'llanma. O'zbekiston kontekstida arxitektura bo'yicha keng qamrovli darslik.

4. “Mehnatni muhofaza qilish”

Mualliflar: A. A'zamov, T. Tursunov, Sh. Shomuratova, N. Lutfullayeva

Nashr yili: 2003, Toshkent (Sano-standart nashriyoti)

Betlar: 232

Tavsif: Bu o'quv qo'llanmada mehnat muhofazasi asoslari, ishlab chiqarishda xavfsizlikni ta'minlash, inson mehnatini muhofaza qilish, ish sharoitini yaxshilash, yong'in xavfsizligi bo'yicha choralar yoritilgan.

